

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Omonova Gullola Ulug'murod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

2 – bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida hamkorlik pedagogikasini takomillashtirish, hamkorlik pedagogikasi mazmuni va bolalar ta'lism – tarbiyasida hamkorlik pedagogikasining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik pedagogikasi, bola, ta'lism, tarbiya, shaxs, shaxsga yo'naltirilgan ta'lism, Maktabgacha ta'lism tashkiloti.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается совершенствование педагогики сотрудничества в дошкольных образовательных организациях, содержание педагогики сотрудничества и значение педагогики сотрудничества в воспитании и образовании детей.

Ключевые слова: педагогика сотрудничества, ребенок, образование, личность, личностно-ориентированное образование, дошкольная образовательная организация.

ANNOTATION

Pedagogy of cooperation in preschool educational organizations in this article improvement, content of cooperation pedagogy and education and education of children the importance of collaborative pedagogy is covered.

Keywords: pedagogy of cooperation, child, education, upbringing, person, person oriented educational, preschool educational organization.

Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib mukammal tarbiyalash hozirgi kunda davlat miqyosidagi vazifalardan biri hisoblanmoqda. Kelajagimiz egalari bo'lmish bolalar ta'limi va tarbiyasiga har tomonlama e'tibor kuchaytirilmoqda. Buning isboti sifatida yurtimizdagи Maktabgacha ta'lism sohasida bo'layotgan o'zgarish va yangiliklarni keltirishimiz mumkin. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lism tizimi boshqaruvini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 11 iyundagi 487-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq yangi tizim yaratildi. Shuningdek Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Ilk qadam” dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni mакtab ta’limiga sifatli tayyorlash amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga har tomonlama sifatli va ishonchli ta’lim va tarbiya berish turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim va tarbiyasida ham ularni shunchaki mакtab ta’limiga tayyorlash emas, balki hayotlaridagi eng kerakli bilimlarni egallashlarini ta’minlash masalasi chuqur tahlil qilinmoqda. Shu sababli ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan faoliyat jarayonlarida bolalarga samarali bo’lgan har xil usulda ta’lim va tarbiya berish yo’lga qo‘yilmoqda. An’anaviy usullarga noan’anaviy usullar ham qo’shilmoqda. Bola shaxsining rivojlanishi, dunyoqarashining kengayishi, mustaqil shaxs sifatida shakllanib borishi, o’z fikrini ravon bayon eta oladigan bo’lishi, guruhdagi bolalar bilan erkin faoliyatga kirisha olishi, bir-birlarini qo’llab-quvvatlashga o’rgatish, mantiqiy fikrlashga o’rgatish kabilalar asosiy vazifalar qilib olingan. Bu vazifalarni bajarishda hamkorlik pedagogikasining o’rni o’ziga xosdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik pedagogikasini yo’lga qo‘yish va takomillashtirish bola shaxsini har tomonlama shakllantirishga yordam beradi. Bolada mustaqil fikrlash, guruhda erkin ishlash, do’stlarga yordam berish, do’stlar bilan hamfikrlilikda harakatlanish, jamoada ravon gapirish, mantiqiy dunyoqarash kabilalar shakllanib boradi.

Hamkorlik pedagogikasi ijodkor shaxsnı shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlik pedagogikasi orqali bolalar o‘zlaridagi turli xislatlarni namoyon qilishlariga erishish mumkin. Buning natijasida har bir bola shaxsiga mos ta’lim - tarbiya muhitini yaratish ularda oliy janob shaxs sifatlarini shakllantirish, bolalarni bilishga bo’lgan qiziqishlarini kuchaytirish, bolalarni o‘z – o‘zlarini tarbiyalashga o’rgatish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan faoliyat jarayonlarida hamkorlik pedagogikasini tashkil etish uchun bolalarni kichik guruhlarda ishlashga, juftlik bo‘lib ishlashg o’rgatib boriladi. Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari

bolalarda erkinlikni tarbiyalaydi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ijodiy faolliliklarini oshiradi, o'zaro fikr almashishga o'rgatadi. Hamkorlikda o'qitish orqali bola shaxsi ta'lim - tarbiyasida quyidagi natijalarga erishish mumkin: bolalarning o'rganish jarayoni boyib boradi, bolalar o'rtasida kognitiv axborotlar berib boriladi, bolalarda berilayotgan topshiriq va bilimlarni bilib olishga ishtiyoq uyg'onadi, bolalarda shaxsiy bilim va dunyoqarashlari kengayishiga imkoniyat kengayadi, bolalarni mustaqil hayotga tayyorlovchi zarur bilimlarni egallashadi. Hamkorlikda o'qitishni samarali tashkil etish uchun avvalo bolalarga ta'lim berayotgan tarbiyachi ham har tomonlama mashg'ulotni samarali tashkil eta olishi zarur.

Tarbiyachi bolaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. Tarbiyachi: axborotlarni to'plash, tanlash, qayta ishlash va o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda bolaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uning yangi pog'onasiga, ya'ni bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga o'tishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Bolalar bilish faoliyatining faollashuvi qator tamoyillarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralarga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa, ta'lim jarayonida tarbiyachi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy tamoyillar kelib chiqadi:

- bolalarda o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- bolaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik pedagogikasini kuchaytirish keng ahamiyat kasb eta boshladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlariga ham bu masala kiritildi. Masalan "Ilk qadam" o'quv dasturida hamkorlik pedagogikasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv deb talqin qilingan va shu asosda ta'lim va tarbiya jarayonlarini rejallashtirish ko'zda tutilgan.

Ta'lim va tarbiya jarayoni bolaning hayoti va uning atrof-muhitidan kelib chiqadigan yagona mavzular majmuiga birlashtirilgan va shuning uchun o'quv dasturi¹ aynan shu bir xil mavzular majmui doirasida rivojlanish markazlarida ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyasini ta'minlashi kerak.

Shunday qilib hamkorlikda o'qitish bolalar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli ham hamkorlikda o'qitishni yanada takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilishi lozim.

¹ "Ilk qadam" o'quv dasturiiga 3-ilova.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoevning PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
2. Prezident Sh. Mirziyoevning PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.
4. <http://www.pedagog.uz/>
5. <http://www.ziyonet.uz>